



Nogiron farzandi bor oilalarda ota onalar o'rtasidagi munosabatlarning yechimi

Norqulova Risolat

Axborot texnologiyalari va

menejment universiteti

defektlogiya yo'nalishi 1 kurs

136 guruh talabasi

Antatsiya :Anomal bolalar ularga qo'yilgan tashxislari va tashxisdan keyingi oilalardagi ota onalar o'rtasidagi nizolar va ularni yechimini yechish masalasiga yordamchi psixologlarimiz haqida fikr yuritamiz.

Hozirgi kunda ayni vaqtda ozgina e'tbordan chetda qolgan munosabatlar haqida gaplashamiz.Kelajagimiz ertasi,poydevori atalmish bolajonlarimiz ular xayotimiz mazmuni ishonchimiz tayanchimiz orzularimiz mevasi hisoblanadi. Shunday ekan o'sib kelayotgan har bir yosh avlodni sog'lom va barkamol o'sishi ulg'ayishi uchun biz kattalar ma'suldirmiz.Ayni shunday o'ta og'ir ma'suliyatni yillar davomida o'z yelkalarida olib kelayotgan ota onalarimizga qanchalar ko'p tasanolar aytsak ham shunchalar kamdur.Aytmoqchi bo'lganimiz o'ta og'ir nogironligi bor bo'lgan bolalar va ularga yillar mobaynida qarab kelayotgan ota onalarimiz haqida ozgina fikr yuritsak.Agar sog'lom farzandimiz ozgina betob bo'lib qolsa biz qanchadan qancha tashvishga tushishimiz turgan gap. Endilikda siz u biz o'ta og'ir nogironligi bor bo'lgan oilalar va ota onalari ularning har kungi bolalarni ahvolini kuzatish mobaynida qanchalar ruhan va jismonan ezilishlari haqida o'ylasakchi? Ha bu haqida o'ylashni o'zi bir daxshatlidir. Ming afsuski bunday oilalar jamiyatimizda yo'q deb ayta olmaymiz.Bunday oilalarda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan balki har tomonlama ko'makga muhtoj bo'ladilar. Nogironligi o'ta og'ir oilalardagi ota-onalar ularni psixk va emotsional kechinmalari faqatgina o'zlariga ayon bo'ladi.Jamiyatimizda nafaqat ota-



onalar balki yolg'iz onalarimiz xam bor.Farzandiga nogironlik tashxisi qo'yilgandan keyin o'z ayoliga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lgan va uni shunday og'ir vaziyatda tashlab ketgan bemexr otalar xam oramizda bor albatta.Bunday vaziyatlarda o'z bolasiga bor mexru-muxabbati bilan yillar davomida nogiron farzandiga qarab kelayotgan yolg'iz ayollarimiz xam bor jamyatimizda. Yoki bunday vaziyatlarda xar ikkala taraf ota-onalar kelishgan holda o'z farzandlarini muruvvat uylariga topshiradilar.Lekin har qancha qilinsada (izlangan insonlar imkon topadi) deyishgan mashoyiqlarimiz.Bunday vaziyatlarda oila posbonlari atalmish ota-onalarga onson bo'lmaydi albatta shu sababli bunday og'ir vaziyatlarni oldini olish maqsadida har bir homilador ayol bo'lajak onalarimizga har doim tibbiy ko'rikga borishlarni nazorat qilib turishlari kerak bo'ladi.Xozir siz bilan nogironlikga sababchi bo'ladigan bir qancha omillarni sanab o'tamiz. Oila qurilayotganda ba'zi ota-onalar qarindosh urug'chilik uzilmasin degan fikrlar bilan qurilayotgan ba'zi oilalarda shunday o'ta og'ir nogironligi bor bo'lgan farzandlar ham dunyoga kelib qoladi .Bundan tashqari reproduktiv salomatlik qoidalariga rioya qilmaslik,homilador ayol o'zi bilmay har xil turdagi dori vositalarini shifokor nazoratisiz qabul qilshi va eng asosiysi homiladorlik vaqtidagi stereslar kuchli asabiyliklardir Yuqoridagi fikrimiz nogironligi bor bo'lgan oilalar asosiy sabablaridan ozgina namunasi edi xolos, agar biz sanab o'tsak qanchadan qancha sabablar bor albatta. Bunday og'ir vaziyatlarda albatta oiladagi ota-onalarga oson emasligi aniq. Aynan shunday qiyin vaziyatlarda ota –onalarimizga albatta oila psixologlar maslaxatlari kerak bo'ladi sababiki bolalarini kunlik xolatiga qarab turgan oila posbonlariga ruxan tetik bo'lishlari va xayotga yanada shiddat bilan ishonch ,umid bilan yondashishlari uchun psixologlarimiz motivatsalari kerak bo'ladi deb o'ylayman.Zero bolalar ota-onalardan oladi kuch-qudratni ishonchni shijoatni metindek irodani va sabrni.Har bir inson hayoti davomida u sog'lom yoki nogiron bo'lsa xam uning qandaydir bir ollox tomonidan berilgan istedodi-maxorati bo'ladi. Bu xattoki fanda xam isbotlangan . Biz anashunday istedod egalarini o'z hayot yo'llarini topishlariga imkon yaratishimiz va o'z vaqtida tirkak bo'lishimiz kerak bo'ladi.Ishonamizki biz bunday bolajonlarga sabr ila ishonch bildirsak va



qiyinchiliklarga bardoshli bo'lsak ichimizdagi ishonchimiz vaqti kelib yuksak natijalar beradi .Shuni ham aytib o'tishimiz joizki Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha soxalarda ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'ycha davlat tomonidan tizimli ishlar izchil davom ettirilmoqda.O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek ' davlatning erkaklar va ayollar , oilalar va bolalar, yoshlar va nuroniyalar, nogironligi bor shaxslar, mamlakatda yoki uning tashqarisida bo'lishidan qat'iy nazar, barcha insonlar haqiqiy qayg'urishi konstitutsiyada mustahkamlanishi kerak. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalari obyektlari va xizmatlaridan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi ularning ishga joylashiga ta'lim olishiga ko'maklashadi ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar E.G.Goziyev «Ontogenez psixologiyasi»

R.Mavlonovova. N.Voxidova « Pedagogika nazariyasi va tarixi»

M.Y. Ayupova «Logopediya»